**Keywords:** branding, brand equity, marketing management, construction materials industry, ingredient branding, digital communication, export potential, competitiveness.



## KIRISH

Qurilish materiallari sanoati zamonaviy iqtisodiyotning kapital sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlaridan biri sifatida marketing faoliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Sement, g'isht, quruq qorishmalar, qoplama materiallari va konstruksion buyumlar bozorida xaridorlar, odatda, qurilish tashkilotlari, loyihalash korxonalari hamda distribyutorlardan iborat bo'lib, xarid qarorlari mahsulotning texnik xususiyatlari, narxi va yetkazib berish ishonchligiga asoslanadi. Bunday sharoitda korxonaning o'z mahsulotini raqobatchilar mahsulotlaridan ajratib turuvchi va bozorda barqaror mavqeni ta'minlovchi muhim marketing vositasi sifatida brend alohida ahamiyat kasb etadi [3].

Uzoq vaqt davomida sanoat tovarlari bozorida brendning roli yetarli darajada e'tirof etilmagan bo'lsa-da, keyingi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar uning ahamiyatini yanada yaqqol namoyon etdi [5]. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda brend sanoat bozorida ham qiymat yaratuvchi muhim nomoddiy aktiv sifatida e'tirof etiladi [6]. Brend tashkiliy xaridorlar uchun tanlov jarayonini soddalashtiradi, ishonchlilikni oshiradi hamda uzoq muddatli va samarali hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi [7].

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun ushbu masala alohida amaliy ahamiyatga ega. Mahsulotlar ko'pincha standartlashtirilgan bo'lib, sifat ko'rsatkichlari jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan sharoitda brending texnologiyalari korxonalarga qo'shimcha qiymat yaratish, mijozlar sodiqligini oshirish va bozordagi mavqegini mustahkamlash imkonini beradi [4].

Shu bois marketing faoliyatini samarali boshqarish brend kapitalini shakllantirish, rivojlantirish va muntazam baholab borish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Maqolaning maqsadi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda marketing faoliyatini boshqarishda brending texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini nazariy jihatdan asoslash hamda amaliy yo'nalishlarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida brend kapitali nazariyasini sanoat bozori sharoitlariga moslashtirish, brending vositalarining marketing natijalariga ta'sir mexanizmlarini ochib berish, tasdiqlangan ilmiy manbalar asosida ushbu ta'sirning afzalliklarini yoritish hamda soha korxonalari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari amalga oshirildi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Brend kapitali tushunchasining zamonaviy talqini K. Kellerning mijozga asoslangan brend kapitali (customer-based brand equity) konsepsiyasiga borib taqaladi. Unga ko'ra, brend kapitali brend haqidagi bilimlarning mijoz reaksiyasiga ko'rsatadigan differensial ta'siri bo'lib, u brendning tanilganligi va brend obrazi (assotsiatsiyalar majmui) orqali shakllanadi [1]. Mijoz brendni yaxshi taniganda va xotirasida kuchli, ijobiy hamda noyob assotsiatsiyalarni saqlaganda yuqori brend kapitali shakllanadi.

D. Aaker tomonidan asos solingan an'anaviy yondashuv brend kapitalini brend tanilganligi, idrok etilgan sifat, brend assotsiatsiyalari va brendga sodiqlik o'lchamlari orqali tavsiflaydi. Keyingi tadqiqotlar ushbu o'lchamlarni sanoat bozoriga moslashtirishda Keller piramidasi yuqori bosqichlari, xususan, emotsional rezonans omilini sanoat sharoitlariga mos ravishda talqin etish zarurligini ko'rsatdi [10]. Sanoat bozorlarida inson omili, ya'ni korxonalar vakillari o'rtasidagi samarali munosabatlar brend kapitalini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sanoat brendingiga bag'ishlangan tizimli sharh tarmoq adabiyotini beshta asosiy yo'nalishga ajratadi: brendingning B2B bozordagi afzalliklari, brendning qaror qabul qilish jarayonidagi o'rni, brend arxitekturasi, brendning kommunikatsiya va munosabatlarni rivojlantiruvchi vazifasi hamda sanoat brend kapitali [5]. F. Kotler va V. Pfoertsch sanoat brendingining nazariy va amaliy asoslarini yoritib, mahsulotlar o'xshashlashgan sharoitda tanilgan va ishonchli brendning bozordagi ustunliklarini asoslab berganlar [3].

Empirik tadqiqotlar sanoat brendingning iqtisodiy qiymatini tasdiqlaydi. M. Bendixsen va hamkasblari o'rta kuchlanishli elektr uskunalari bozorida konjoint-tahlil yordamida brend kapitali narx ustamasini shakllantirishga xizmat qilishini aniqlaganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, afzal ko'rilgan brend taxminan 6,8 foiz, texnik mutaxassislar nazarida esa 26 foizgacha narx ustamasiga ega bo'lgan [4]. Brend orientatsiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlar esa brendga yo'naltirilgan strategiyalar kichik va o'rta sanoat korxonalarining moliyaviy natijalarini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlagan [9].

Zamonaviy global tadqiqotlar B2B-brending sohasini brend kapitali, sanoat brending, brend qiymati, global brend yetakchiligi va munosabatlar marketingi kabi bilim maydonlariga ajratib, ushbu yo'nalishning nazariy bazasi izchil rivojlanib borayotganini qayd etadi [6]. Brend orientatsiyasining korxonalar faoliyatiga ta'sirini o'rgangan so'nggi ilmiy ishlar innovatsion va brending dinamik salohiyatlarining vositachilik rolini ochib bergan [8]. Mavjud adabiyotlar brendingni samarali marketing boshqaruvining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, qurilish materiallari sanoatida brending texnologiyalarining o'ziga xos jihatlarini yanada chuqurroq o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-amaliy xususiyatga ega bo'lib, sifat tahlili usullariga tayangan holda amalga oshirildi. Asosiy metod sifatida ilmiy adabiyotlarni tizimli ko'rib chiqish va konseptual modellashtirish yondashuvlari qo'llanildi. Brend kapitalining mijozga asoslangan modeli [1] hamda sanoat brendingi nazariyasi [3] metodologik asos sifatida qabul qilinib, ular qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati sharoitlariga moslashtirildi.


Empirik bazani ochiq manbalardagi tasdiqlangan ikkilamchi ma'lumotlar tashkil etdi. Bunda xalqaro bozor tahlili tashkilotlarining hisobotlari, nufuzli ilmiy maqolalar va rasmiy axborot manbalari tanlab olindi. Har bir miqdoriy ko'rsatkichning kelib chiqishi aniq, havolasi mavjud va qayta tekshirilishi mumkin bo'lgan manbalarga asoslandi. Shu orqali tahlil natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligi ta'minlandi.

Tahlil mantig'i uch bosqichli zanjir asosida shakllantirildi: branding texnologiyalari, brend kapitali o'lchamlari va marketing samaradorligi natijalari. Ushbu zanjir konseptual model ko'rinishida rasmiylashtirilib, tahlil va natijalar bo'limida grafik shaklda taqdim etildi. Manbalardan olingan ko'rsatkichlar jadval ko'rinishida tizimlashtirildi hamda ularning marketing boshqaruvi samaradorligi bilan bog'liqligi ilmiy jihatdan izohlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish materiallari bozorida marketing faoliyatini samarali boshqarishni branding nuqtai nazaridan tushuntirish uchun, avvalo, uning ta'sir mexanizmlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Branding texnologiyalari to'rtta asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: brend identifikatsiyasi va pozitsiyalashtirish, ingredient-branding hamda sifat sertifikatlari, raqamli kommunikatsiya va kontent-marketing, shuningdek, tashkiliy mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish [3].

Mazkur vositalar brend kapitalining asosiy o'lchamlari — brend tanilganligi, idrok etilgan sifat, brend assotsiatsiyalari va mijozlar sodiqligini shakllantirish hamda mustahkamlashga xizmat qiladi [1]. O'z navbatida, ushbu o'lchamlar marketing faoliyati samaradorligini oshirish, mijozlar ishonchini kuchaytirish va korxonaning bozordagi raqobatbardosh mavqeyini mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Branding texnologiyalaridan foydalanishning marketing natijalariga ta'sir etish zanjiri va ularning o'zaro bog'liqligi keltirilgan (1-rasm).



qaytuvchi aloqa: bozor natijalari brend strategiyasini takomillashtiradi

**1-rasm. Branding texnologiyalarining qurilish materiallari korxonalar marketing samaradorligiga ta'sir modeli [1], [3].**

Modelning birinchi bo'g'inini brend identifikatsiyasi orqali korxonaning bozordagi mavqeyini aniq belgilashga xizmat qiladi. Standartlashtirilgan mahsulotlar sharoitida samarali pozitsiyalashtirish korxonaning raqobatbardosh ustunliklarini namoyon etish va bozorda o'ziga xos o'rin egallashning muhim omili hisoblanadi [3].

Ikkinchi bo'g'in — ingredient-branding va sifat sertifikatlari bo'lib, ular mahsulotning ishonchliligi va sifatini mustaqil tasdiqlash orqali mijozlar ishonchini mustahkamlaydi hamda xarid qarorlarini qabul qilish jarayonini yanada qulaylashtiradi [7].



Uchinchi bo'g'in raqamli kommunikatsiya hisoblanadi. Ushbu yo'nalish loyihachilar, quruvchilar va boshqa tashkiliy mijozlarga texnik ma'lumotlarni samarali yetkazish orqali brendning tanilganligini oshiradi va uni qaror qabul qilish jarayonining muhim elementi sifatida shakllantiradi.

Mazkur ta'sirning miqdoriy tasdig'i empirik tadqiqotlarda ham o'z aksini topgan. Sanoat bozorida o'tkazilgan konjoint-tahlil natijalari yuqori brend kapitaliga ega korxonalar qo'shimcha qiymat yaratish va narx ustamasiga erishish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, afzal ko'rilgan brend uchun narx ustamasi o'rtacha 6,8 foizni, texnik mutaxassislar baholashida esa 26 foizgacha bo'lgan darajani tashkil etgan [4]. Shuningdek, brend orientatsiyasini o'rgangan tadqiqotlar brendga yo'naltirilgan strategiyalar kichik va o'rta sanoat korxonalarining moliyaviy natijalarini yaxshilashga sezilarli hissa qo'shishini tasdiqlagan [9]. Bu esa brending texnologiyalarining korxonada daromadlilik va bozor samaradorligini oshirishdagi muhim rolini ko'rsatadi.

Brending texnologiyalarining amaliy ahamiyati bozor dinamikasi bilan ham tasdiqlanadi. Quyidagi jadvalda qurilish materiallari bozorining tasdiqlangan ko'rsatkichlari hamda ularning marketing faoliyatini boshqarish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tizimlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval

Qurilish materiallari bozori rivojlanish ko'rsatkichlari va ularning marketing boshqaruvi uchun ahamiyati<sup>1</sup>

Ko'rsatkich	Joriy holat	Istiqbolli rivojlanish ko'rsatkichi	O'sish sur'ati, %
Jahon yashil qurilish materiallari bozori	285,89 mlrd AQSH dollari	458,61 mlrd AQSH dollari (2030-yil)	8,5
Jahon aqlli qurilish materiallari bozori	41,65 mlrd AQSH dollari	95,04 mlrd AQSH dollari (2033-yil)	9,6
O'zbekiston qurilish materiallari sanoati eksporti	4,4 mlrd AQSH dollari	Eksport hajmini 1,1 mlrd AQSH dollariga oshirish	400*
O'zbekiston sement bozori savdo hajmi	5,9 mln tonna	6,9 mln tonna	5,8

1-jadval ma'lumotlari qurilish materiallari bozorining ikki asosiy yo'nalishda barqaror rivojlanayotganini ko'rsatadi. "Yashil" qurilish materiallari jahon bozori 2024-yilda 285,89 milliard AQSH dollarini tashkil etib, 2030-yilga borib 458,61 milliard AQSH dollariga yetishi hamda yillik 8,5 foiz sur'atda o'sishi prognoz qilinmoqda [11]. Shuningdek, "aqlli" qurilish materiallari segmenti 2024-yildagi 41,65 milliard AQSH dollaridan 2033-yilga kelib 95,04 milliard AQSH dollariga yetib, yillik 9,6 foiz sur'atda o'sishi kutilmoqda [12]. Bunday yuqori o'sish sur'atlariga ega va qo'shimcha qiymat yaratishga yo'naltirilgan segmentlarda mahsulotning ekologik hamda texnologik afzalliklarini brend orqali namoyon etish bozordagi mavqeni mustahkamlash va yangi mijozlarni jalb etishning samarali vositasi hisoblanadi.

Mahalliy bozor ham ijobiy rivojlanish dinamikasini namoyish etmoqda. O'zbekistonda qurilish materiallari sanoati so'nggi sakkiz yil davomida to'rt baravar o'sib, joriy yilda 53 trillion so'mga (taxminan 4,37 milliard AQSH dollari) yetishi, eksport hajmi esa 1,1 milliard AQSH dollarini tashkil etishi kutilmoqda [14]. Sement bozorida ham yuqori faollik kuzatilib, 2024-yilda savdo hajmi 5,9 million tonnaga yetdi, yetakchi ishlab chiqaruvchilardan biri esa bozorning 18 foiz ulushini egalladi [15]. Bunday sharoitda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning kuchli va ishonchli brendlarni shakllantirishi ularning raqobatbardoshligini oshirish hamda bozordagi mavqegini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Olingan natijalar brending texnologiyalarining uchta asosiy samaradorlik mexanizmini namoyon etdi. Birinchidan, brending iqtisodiy samaradorlikni mahsulotning qo'shimcha qiymatini oshirish va daromadlilikni yaxshilash orqali ta'minlaydi [4]. Ikkinchidan, u bozor samaradorligini barqaror talabni shakllantirish va bozor ulushini kengaytirish orqali qo'llab-quvvatlaydi [12]. Uchinchidan, brending strategik samaradorlikni raqobat ustunliklarini mustahkamlash hamda eksport salohiyatini rivojlantirish orqali kuchaytiradi [14]. Mazkur uch

1 Grand View Research ma'lumotlari [11; 12], O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati materiallari [14] hamda sanoat tahlili ma'lumotlari [15] asosida muallif tomonidan tuzilgan.



mexanizm marketing boshqaruvini brend kapitalini izchil rivojlantirishga yo'naltirilgan yagona va samarali tizimga aylantiradi.

Modeldagi qaytuvchi aloqa bo'g'ini alohida amaliy ahamiyat kasb etadi. Bozor natijalari, jumladan takroriy buyurtmalar, mijozlar qoniqishi va eksport ko'rsatkichlari, brend strategiyasini yanada takomillashtirish uchun muhim axborot bazasini shakllantiradi [8]. Shu tariqa marketing boshqaruvi uzluksiz rivojlanib boruvchi va o'zini qo'llab-quvvatlovchi siklik jarayonga aylanadi. Bu esa branding texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda branding texnologiyalari marketing faoliyatini boshqarish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini nazariy va amaliy jihatdan tasdiqladi. Tadqiqot davomida brend kapitalining mijozga asoslangan modeli sanoat bozori sharoitlariga moslashtirildi hamda uning marketing boshqaruvidagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi. Natijalar branding texnologiyalari korxonalariga qo'shimcha qiymat yaratish, mijozlar ishonchini mustahkamlash va raqobatbardosh ustunliklarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali boshqaruv vositasi ekanligini ko'rsatdi.

Tahlil natijalari brandingning ijobiy ta'siri uchta asosiy yo'nalishda namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Iqtisodiy jihatdan brandingning rivojlanishi mahsulotning qo'shimcha qiymatini oshirish, daromadlilik ko'rsatkichlarini yaxshilash va korxonalar samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bozor nuqtayi nazaridan esa kuchli brend mijozlar talabining barqarorligini ta'minlab, bozor ulushining kengayishiga hamda xaridorlar sodiqligining ortishiga ko'maklashadi. Strategik jihatdan esa rivojlangan brend korxonaning raqobat ustunligini mustahkamlaydi, eksport salohiyatini kengaytiradi va uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

Qurilish materiallari bozorida kuzatilayotgan barqaror o'sish tendensiyalari, ayniqsa ekologik va innovatsion xususiyatlarga ega bo'lgan "yashil" hamda "aqlli" mahsulotlar segmentlarining jadal rivojlanishi, brandingni korxonalar strategik boshqaruvining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirmoqda.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Birinchi, korxonalarda brend identifikatsiyasi va aniq pozitsiyalashtirish marketing strategiyasining asosiy tarkibiy qismi sifatida shakllantirilishi, mahsulotning texnik hamda funksional afzalliklari branding asosiy qiymat taklifiga aylantirilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchi, mahsulot sifati va ishonchligini mustaqil sertifikatlash tizimlari hamda ingredient-branding yondashuvlari orqali tasdiqlash xaridorlar ishonchini mustahkamlash va bozor mavqeyini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchi, loyihachilar, quruvchilar va boshqa professional iste'molchilarga yo'naltirilgan raqamli kontent-marketing vositalaridan keng foydalanish orqali brandingning tanilganligini oshirish hamda uning qaror qabul qilish jarayonidagi ta'sirini kuchaytirish tavsiya etiladi.

To'rtinchi, "yashil" va "aqlli" qurilish materiallari segmentlaridagi ekologik hamda texnologik afzalliklarni brend strategiyasining markaziy elementi sifatida shakllantirish korxonalarining bozor mavqeyi va raqobatbardoshligini yanada yuksaltirishga imkon beradi.

Beshinchi, bozor ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish va iste'molchilardan olinadigan qayta aloqa asosida brend strategiyasini izchil takomillashtirib borish marketing faoliyatining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur yo'nalishlarning izchil amalga oshirilishi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarining raqobatbardoshligini mustahkamlash, mahalliy mahsulotlarning ichki va tashqi bozorlardagi mavqeyini yanada kuchaytirish hamda sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Kelgusidagi tadqiqotlarda mahalliy korxonalar misolida branding samaradorligini miqdoriy baholash, uning korxonalar faoliyati natijalariga ta'sirini chuqurroq tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar bazasini kengaytirish istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Keller K. L. Conceptualizing, Measuring, and Managing Customer-Based Brand Equity // Journal of Marketing. – 1993. – Vol. 57, No. 1. – P. 1–22. URL: <https://people.duke.edu/~moorman/Marketing-Strategy-Seminar-2015/Session%203/Keller.pdf>

2. Industrial Brand Equity: A Systematic Literature Review and Directions for Future Research // Cogent Business & Management. – 2024. URL: <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/23311975.2024.2440623>

3. Kotler P., Pfoertsch W. B2B Brand Management. – Berlin; Heidelberg: Springer, 2006. – 357 p. URL: <https://link.springer.com/book/10.1007/978-3-540-44729-0>



4. Bendixen M., Bukasa K. A., Abratt R. Brand Equity in the Business-to-Business Market // *Industrial Marketing Management*. – 2004. – Vol. 33, No. 5. – P. 371–380. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0019850103001226>

5. Leek S., Christodoulides G. A Literature Review and Future Agenda for B2B Branding: Challenges of Branding in a B2B Context // *Industrial Marketing Management*. – 2011. – Vol. 40, No. 6. – P. 830–837. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0019850111000654>

6. Marvi R. et al. Elevating B2B Branding in a Global Context: Integrating Existing Literature and Proposing a Forward-Thinking Conceptual Framework // *Industrial Marketing Management*. – 2024. – Vol. 120. – P. 247–272. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0019850124000968>

7. Business-to-Business (B2B) Branding: What We Know and Where Do We Go // *Journal of Business Research*. – 2026. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0148296326001712>

8. The Impact of Brand Orientation on Firm Performance: Examining the Role of Innovation and Branding Dynamic Capabilities // *Journal of Brand Management*. – 2025. URL: <https://link.springer.com/article/10.1057/s41262-025-00403-1>

9. Anees-ur-Rehman M. et al. How Brand-Oriented Strategy Affects the Financial Performance of B2B SMEs // *Journal of Business & Industrial Marketing*. – 2018. – Vol. 33, No. 3. – P. 303–315. URL: <https://doi.org/10.1108/IBIM-10-2016-0237>

10. B2B Brand Equity: A Study of the Applicability of the Customer-Based Brand Equity Model in Industrial Markets. URL: [https://www.academia.edu/4914773/B2B\\_Brand\\_Equity](https://www.academia.edu/4914773/B2B_Brand_Equity)

11. Green Building Materials Market Size, Share & Trends Report, 2030 / Grand View Research. URL: <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/green-building-materials-market>

12. Smart Building Materials Market Size, Industry Report, 2033 / Grand View Research. URL: <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/smart-building-materials-market-report>

13. Building Materials Market Size, Share & Trends Report, 2030 / Grand View Research. URL: <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/building-materials-market-report>

14. Uzbekistan's Construction Materials Industry Gains Strong Traction // *Trend.Az*. – 2025-yil 20-noyabr. URL: <https://www.trend.az/business/4120239.html>

15. Uzbekistan's Cement Market Surges 58% in 2024 // *CemNet*. – 2025-yil 17-yanvar. URL: <https://www.cemnet.com/News/story/178471/uzbekistan-s-cement-market-surges-58-in-2024.html>

16. Uzbekistan Construction Industry Report 2024: Output to Grow by 5.8% in Real Terms // *GlobalData via BusinessWire*. – 2024-yil 23-oktabr. URL: <https://www.businesswire.com/news/home/20241023461735/en/>

17. Hardware & Building Materials – Uzbekistan / Statista Market Forecast. URL: <https://www.statista.com/outlook/cmo/diy-hardware-store/hardware-building-materials/uzbekistan>

18. Enhancing Firm Performance: The Role of Brand Orientation in Business-to-Business Marketing // *Industrial Marketing Management*. – 2018. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0019850117305400>

19. Market Orientation, Integrated Marketing Communications, and SMEs Performance: A Comparison Between Developed and Developing Economies // *European Research on Management and Business Economics*. – 2024. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2444883424000196>

20. Determining Key Factors Influencing SMEs' Performance: A Systematic Literature Review and Experts' Verification // *Cogent Business & Management*. – 2023. URL: <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/23311975.2023.2251195>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/2**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>